

## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA 5E MODEL EXPLORE (O'RGANISH) BOSQICHINI QO'LLASH

L.B.Irisova

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

*Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang'ich ta'lismi) mutaxassisligi*

*1-kurs magistranti*

*E-mail: [lobarislomova05@gmail.com](mailto:lobarislomova05@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida 5E modelining Explore (o'rganish) bosqichini qo'llash, uning foydalari, afzallikkali haqida gap ketgan. Bu bosqichning qonun-qoidalari, qanday qo'llanilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, o'rganish, konseptual, bahs-munozara, explore, o'qituvchi, o'quvchi, o'zlashtirish, izlanish.

**Annotation.** This article discusses the use of the Explore (learning) stage of the 5E model in native language and reading lessons in elementary school, its advantages and benefits. Information is provided on the rules of this stage and how it is applied.

**Keywords:** motivation, learning, conceptual, discussion, explore, teacher, student, assimilation, research.

**Аннотация.** В этой статье речь идет об использовании этапа Explore (изучение) модели 5E на уроках родного языка и чтения в начальных классах, ее преимуществах и преимуществах. Даны информация о законах и правилах этого этапа, о том, как их применять.

**Ключевые слова:** мотивация, обучение, концептуальная, дискуссия, explore, учитель, ученик, освоение, поиск.

Bola dunyoga kelganidan so'ng ma'lum vaqt o'tib unda o'zlashtirish jarayoni shakllanadi. O'zlashtirish bu, misol uchun, bola ag'anashni, harakatlanishni, emgaklashni, yurishni, gapirishni ong osti orqali bajarishi. Bolalarda o'zlashtirish yuzaga kelganidan so'ng o'rganish boshlanadi. Ular o'z tillarida gapirishni oilasida

ko'rib o'zlashtiradi va mактабга чиққанидан со'нг о'з тилинг grammatisini hamda uning kelib chiqishini o'рганади. O'quvchi maktab yoshiga qadar ko'plab voqea-hodisalarni ko'rgan, hayvonlar, insonlar. Bir necha hayvonlarning oyoqlari borligi, nimalar bilan oziqlanishi, qanday qilib suv ichishi kabilarni mustaqil o'zlashtirgan. Maktab yoshiga yetganda esa o'рганиш jarayoni yuzaga chiqadi.

O'рганиш bu – insonlarning yoki obyektlarning boshchiligidagi yuzaga keladigan jarayon. O'quvchilar ham o'qituvchi bilan hamda sinfdoshlari bilan fikr almashish yoki kitob o'qishlari orqali o'рганадilar. Biz o'quvchilarning o'рганишлари va o'rgangan bilimi yodda qolishi, kelajakda uni hayotta qo'llay olishi, jamiyat orasida erkin muloqot qilib o'z fikrini bildira olishi, o'zgalar fikrini hurmat qilishi kabilarni 5E modelining explore (o'рганиш) bosqichini to'g'ri qo'llash orqali amalga oshiramiz.

Explore (o'рганиш) o'quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bunda bolalar mavzu bo'yicha turli eksperimentlar (tajribalar) o'tkazishadi, muammolarni yechishadi, tadqiqotlar olib boradi. Bu bosqich izlanish bosqichi ham deyiladi. Bunga sabab o'quvchilar guruh bo'lib muammoga yechim izlaydilar, yangi g'oyalar yaratadilar hamda bir-biri bilan fikr almashadilar. Bu bosqichni boshlang'ich sinflarda qo'llash orqali ta'lim va tarbiyada katta yutuqqa erishiladi. O'quvchilarning hamkorligi hosil bo'ladi, ya'ni guruh bo'lib ishslash. Guruh bo'lib ishlaganda, guruhdagi har bir o'quvchining nimaga qodirligi namoyon bo'ladi. Masalan, guruhnini qaysidir o'quvchi tartibga solib boshqaradi, o'rtoqlaridan navbat bilan fikrlarini so'raydi va boshqalarni so'zlayotgan kishini tinglashga undaydi. Bu orqali u bolaning guruhnini boshqarish qobiliyati namoyon bo'lib, kelajakda qaysidir sohada boshqaruvchi bo'lishi o'qituvchi tomonidan anglashiladi hamda o'qituvchi o'sha o'quvchining bu qobiliyatini yuksaltirishga harakat qiladi. Yana qaysidir o'quvchi juda teran fikrlaydigan, o'zining topgan yechimiga guruhdagilarini ishontira oladigan va ularni bu yechimga qo'shilishlarini hosil qiladigan bo'ladi. Bu o'quvchining kelajakda xalqni to'g'ri yo'lga undaydigan, har qanday siyosiy-iqtisodiy masalada oqilona yechim topadigan shaxs bo'lib yetishishi o'qituvchi tomonidan anglashiladi (albatta o'qituvchi yaxshi psixolog hamda kuzatuvchi bo'lsa). Yana bir o'quvchi esa muammoga falsafiy yondashadigan yoki har qanday yechimga ijodkorlik ko'zi bilan qaraydigan, kreativ fikrlash qobiliyati bor insondir. Bu kabi o'quvchilardan kelajakda buyuk kashfiyotlar kutish mumkin. Qaysidir o'quvchi esa topilgan yechimni

o'qituvchiga o'zim aytib beraman guruh nomidan deya, ilg'orlik qiladi. Bunday o'quvchilar kelajak hayotlarida muxbir yoki go'zal nutq so'zlovchi bo'lishlari mumkin. Boshqa bolalardan ajralib turadigan o'quvchilar ham bor, ular guruhda fikr bildira olishmaydi, ichki ong ostida muammoga yechimni bilsalar ham o'rtoqlariga aytishdan uyalishadi, faqat ularning fikrini tinglaydi va qabul qiladi. Bu kabi o'quvchilarни shundoqligicha qoldirib bo'lmaydi, ular shu ketishda davom etsalar, kelajakda o'z fikriga ega bo'lman, jamiyat orasiga singishib keta olmaydigan, xalqqa fikr bera olmaydigan hattoki oilada o'z o'mmini yo'qotgan kishi bo'lib yetishadi. Explore bosqichining asl maqsadi shundaki, bu bosqich orqali har bir o'quvchining qobiliyatları, bilim darajasi aniqlanadi, guruhda o'z fikrini bildira olmaydigan bolalar bilan o'qituvchi individual ishlashi talab etiladi. Misol uchun, u boladan bosqich so'ngida o'qituvchi tomonidan uning qanday fikrda ekanligi so'raladi hamda javobi o'qituvchi tomonidan "seniki ham haqiqatga yaqin", "javobing yomon emas" kabi gaplar bilan o'qituvchi uning o'ziga bo'lgan ishonchini uyg'otadi, guruhda o'z fikrini bildirishga undaydi va to'g'ri javobni aytadi.

Bu bosqichda o'quvchilar muammo bilan kurashadigan va uni mustaqil ravishda yoki guruhlarda tushunishga harakat qiladigan vaziyatlar tuziladi. Bunda o'quvchilar ko'pincha chalkashliklarga, qarama-qarshi fikrlarga yoki javobsiz savollarga duch kelishadi. Tadqiqot o'quvchilarning mega-idroki uchun imkoniyatdir, ya'ni o'quvchilar nima qilayotganliklari va mavzu bo'yicha konseptual (fikr, tushuncha) jihatdan tushunmayotganliklari haqida o'ylashlari hamda tushunchalaridagi kamchiliklarni aniqlashlari uchun imkoniyatdir. Bu o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojini va savollarini ifoda etish imkoniyatini beradi. O'quvchilar yangi ma'lumotlar, tushuntirishlar hamda g'oyalarni qabul qilishga tayyor bo'lishlari uchun har qanday yangi atamalarni yoki ma'lumotlarni kiritishdan oldin o'rganishlari kerak.

Exploring o'quvchilar uchun afzalliklari va foydalari bu bosqich jarayoni davrida ularning diqqati oshadi, erkin fikrlay boshlaydi, darsga bo'lgan hamda muammoga yechim topishga bo'lgan qiziqishlari oshadi, ular tomonidan bilimga bo'lgan tepki yuzaga keladi, nutq faoliyati o'sadi, o'zini qanday tutishi kerakligi shakllanadi, guruh azolari bir-birlaridan bilimlarni sug'urib olish jarayoni hosil bo'ladi, kreativligi o'sadi, tanqidiy, tahliliy va mantiqiy jihatdan fikrlash doirasi kengayadi, bahs-munozaraning qizg'inligi ularda motiv hissini uyg'otadi hamda

harakatga undaydi, muammo va uning yechimi bir umrga yodlarida qoladi. Chunki bahs munozaraga boy bo'lgan jarayon hech qachon insonlar xotirasidan o'chmaydi.

Oqituvchilar uchun bu bosqichning afzalliklari va foydalari, avvalo, o'quvchilarining psixologiyasini, yashirin hamda tashqi qobilyatlarini, fikr yuritish jarayonini, bilim doirasini, nuqsonlarini aniqlay olish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar orqali o'qituvchi o'quvchilarga qanday masalada yordam berish kerakligi, ularga qanday yondashish zarurligi, kimlarga individual muloqot lozimligi, sinfda qanday muhit bunyod etishi haqida bilib oladi.

Keling, bu bosqichni qo'llab ko'raylik. O'quvchilarga shunday savol beriladi va u savolga guruh bo'lib javob topishlari uchun uch daqiqa vaqt belgilanib beriladi. SAVOL: U gap ham emas so'z ham emas, lekin o'zida gaplarni ham so'zlarni ham mujassam etadi, o'ylang u nima?

Ular guruh bo'lib bahs-munozaraga kirishib ketishadi. O'qituvchi uch daqiqa vaqt mobaynida ularni kuzatib boradi. Berilgan muddat tugagandan so'ng, guruhlardan bittadan o'quvchi savolga javob beradi. Javoblar o'quvchilarning bilim hamda fikrlesh doirasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Murabbiy ularning javoblarini tinglaydi so'ng guruhda fikrini bildira olmagan o'quvchilarni, u ko'rgan bo'lishi kerak (bunday o'quvchilar har bir sinfda uchraydi), savolga tutadi, gapirishga undaydi, javobi qoniqarli bo'lmasada yaxshi javob aytganini bildirib, "Barakalla" deya o'tirishga buyuradi. O'qituvchidan savol javobini aytishdan oldin guruhlarning ham javoblari yaqin kelganligini yoki to'g'ri javob berishgan bo'lsa "barakalla" deya yakunlashi so'raladi. Bu bosqich yakunida o'quvchilar o'ziga kerakli xulosalarni, o'qituvchi ham o'ziga zarur narsalarni qo'lga kiritishadi. Savol javobi esa nutq ekanligi ma'lum bo'ladi. Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap esa so'zlardan tashkil topadi. Shuning uchun, savolda gaplarni ham so'zlarni ham o'zida mujassam etadi, deb berilyapti. Exploreda ko'proq o'quvchilar harakat va fikrlesh jihatdan o'qituvchiga nisbatan faollroq bo'ladilar.

O'qituvchining bu bosqichdan qanchalik samarali foydalanganligi o'quvchilarning qay darajada guruhi bilan bahs-munozarada qizg'inligi, muammoga ularning yaqinlashish darjasini yuksakligi, savol javobi berilganda o'quvchilarning hayrati yoki hayajoni yuzaga chiqishi orqali namoyon bo'ladi. Murabbiy bu bosqichni qamalga oshirayotganda quyidagilarga diqqat qaratishi lozim:

- muammoning o'quvchilarni bahsga chorlay olishiga ishonch hosil qilish;
- o'quvchilarning oldingi ma'lumotlariga bog'lagan holda savol yaratish;
- tanqidiy, mantiqiy fikirlaydigan savollar bo'lishi;

Bular orqali yo'l tutilsa, o'qituvchi ko'zlagan natijasiga erishadi.

Hozirgi davrda hamma soha shiddat bilan rivojlanib bormoqda, shuningdek, ta'lim sohasi ham. 5E bizning yurtimizga, ta'lim sohasiga yangi kirib kelgan model. Insonlar doimo yangiliklarga o'ch va unda yaxshi natijalarga erishadilar. Biz o'qituvchilar ham aynan shu modelni ta'limda qo'llash orqali kelajjakka aqilli, har sohada uddaburon yoshlarni yetkazib berishga harakat qilaylik. Kelajak biz va yoshlar qo'lidadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ta'limda 5E modeli. Badalova Maqsuda Umarovna.
2. 3-sinf ona tili darsligi.,2024.
3. Azizzxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.T.: 2006.
4. Abdullayev A, Karimova G (2022). Improving the process of school sports of Learning and Academic Teaching.
5. Umumiyl psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. O'qituvchi,T., 1992.